



TA'LIM LOYIHALARINI BOSHQARISH

Alimov Behruz Baxtiyorovich

*Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar
universiteti magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim loyihalarini boshqarishda nazariy qarashlar ko'rib chiqiladi. Ta'lim loyihalarini boshqarishda an'anaviy va loyihaviy boshqaruv tamoyillariga va ularning farqlari keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Loyiha boshqaruvi, ta'lim loyihalari, an'anaviy boshqaruv, ta'lim standartlari.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasida, boshqa ijtimoiy sohalar kabi, katta o'zgarish va reformalar amalga oshirilmoqda. Bunga raqamli davrda ro'y berayotgan inqilobiy o'zgarishlar, ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va texnologik chaqiruvlarga, jahon ta'lim standartlariga to'liq mos keladigan, zamonaviy milliy ta'lim standartlarini amalga oshirishga undaydigan chaqiruvlar sabab bo'lmoqda. Albatta bu O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonda o'z o'rnini mustahkam egallash, rivojlangan birinchi dunyo mamlakatlari bilan bir maromda qadam tashlash uchun eng avvalo o'z milliy ta'lim loyihalarini tubdan o'zgartirish lozimligini namoyon etmoqda.

O'zbekiston ta'lim sohasini reforma qilish, bu ta'lim muassasasi va tashkilotlarining normativ-huquqiy, institutsional asoslarini transformatsiya qilish, maktabgacha va maktab, oliy, inklyuziv, qo'shimcha va raqamli ta'limga yirik innovatsion loyihalarni joriy etish bilan bog'liq. Shunday ekan, ta'lim loyihalarini yangicha, zamonaviy, jozibador, va eng muhimi hammabop va hamyonbop etib tashkil etish hamda uni xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlash uchun, ushbu jarayonlarni an'anaviy boshqaruv usulidan loyihaviy boshqaruv asosida olib borish va joriy etish maqsadga muvofiq.



Buning uchun avvalam bor, ta'lim loyihalarini boshqarish tushunchasiga aniqlik kiritish lozim. Ta'lim loyihalarini boshqarish – bu ta'lim sifatini va samaradorligini ta'minlash, ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining qoniqishini oshirish maqsadida ta'lim loyihalarini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish jarayonidir.

Ta'lim loyihalarini boshqarish ta'lim sohasida muhim yo'nalish bo'lib, u ta'lim jarayonlarini samarali rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish imkonini beradi. Ta'lim loyihalarini boshqarishning asosiy vazifalari quyidagilardan iboratdir:

- Loyihani rejalashtirish – loyihaning maqsadlari, vazifalari va kutilayotgan natijalarini belgilash, resurslar va xatarlarni baholash;
- Loyihani tashkil etish – loyiha jamoasini shakllantirish, majburiyatlar va vazifalarni taqsimlash, boshqaruv tuzilmasini yaratish;
- Loyihani boshqarish – vazifalarni bajarilishini nazorat qilish, yuzaga kelgan muammolarni hal etish, loyiha ishtirokchilarini rag'batlantirish;
- Loyihani monitoring va nazorat qilish – loyiha amalga oshirilish jarayonini kuzatish, og'ishlarni tahlil qilish va natijalarni baholash, tuzatish choralarini ishlab chiqish;
- Xatarlarni boshqarish – loyiha xatarlarini aniqlash, tahlil qilish va baholash, ularni minimallashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- Resurslarni optimallashtirish – resurslarni rejalashtirish va samarali foydalanish, ularning ortiqcha sarfini oldini olish, optimallashtirish va tejamkorlik imkoniyatlarini izlash;
- Manfaatdor tomonlar bilan muloqot qilish – ta'lim jarayoni ishtirokchilari, ota-onalar, tashkilotlar va muassasalar bilan aloqani ta'minlash va hamkorlik qilish.

Ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi va ta'lim muhitidagi o'zgarishlar bilan ta'lim loyihalarini boshqarish ta'lim sifati va imkoniyatlarini oshirish, ta'lim



muhitini rivojlantirish va ta'lim jarayoni ishtirokchilarining ehtiyojlarini qondirish uchun tobora muhim bo'lib bormoqda.

Shunday ekan, ta'lim loyihalarini boshqarishda an'anaviy va loyihaviy boshqaruvining bir-biridan farqini ko'rib chiqish, uni mazmun-mohiyatini anglash muhimdir. Bir qarashda ularning o'rtasida sezilarli farq bo'lmasligi va ahamiyat berishga loyiq emasdek. Ammo an'anaviy boshqaruv jarayonlarning borishiga urg'u bersa, loyihaviy boshqaruv aniq belgilangan maqsad va natijadorlikka erishishga harakat qiladi.

Shunday qilib, an'anaviy boshqaruv yondashuvi alohida ishlar va operatsiyalar o'rtasidagi gorizontaal bog'lanishni ta'kidlaydi, u butun jarayonning barqarorligiga, jarayonning oldindan belgilangan ko'rsatkichlardan chetlashishini minimallashtirishga asosiy e'tiborni qaratadi. Shu bilan birga, loyiha tashabbusi va maqsad qo'yish, faoliyatni rejalashtirish va loyihalashtirish bo'yicha harakatlar loyiha faoliyati doirasidan tashqarida qoladi.

Umuman olganda, loyiha boshqaruvi an'anaviy boshqaruvdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

1. An'anaviy boshqaruv harakatlar (hodisalar) jarayoniga ko'proq yo'naltirilgan bo'lsa, loyiha boshqaruvi muayyan belgilangan maqsadga erishishga intiladi.
2. An'anaviy boshqaruv tashkiliy ishlarga, loyiha boshqaruvi esa natijaga yo'naltirilgan.
3. An'anaviy boshqaruvda loyiha aniq tugatilish muddati yo'q, loyiha boshqaruvida esa moliyaviy va vaqt jihatidan qat'iy cheklangan.
4. An'anaviy boshqaruvda vazifalarni taqsimlash rejalashtiriladi, loyiha boshqaruvida esa resurslarni aniq rejalashtirish amalga oshiriladi.
5. An'anaviy boshqaruv ish jarayoniga, loyiha boshqaruvi esa maqsadlarni aniqlash va ularga erishishga ko'proq yo'naltirilgan.
6. An'anaviy boshqaruvda umumiy ish normasi qabul qilingan bo'lsa, loyiha boshqaruvida esa loyiha yakunlangach ishlarni qabul qilish amalga oshiriladi.



7. An'anaviy boshqaruvda bir xillik xatar bor, loyiha boshqaruvida esa xilma-xillik va noodatiylik ustuvor ahamiyatga ega.

8. An'anaviy boshqaruvda doimiy faoliyat yurituvchi xodimlar jalb etilgan bo'lsa, loyiha boshqaruvida loyihaga bog'liq ravishda o'zgarib turuvchi jamoa ishtirok etadi.

Loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uning puxta va o'ylangan boshqaruvi zarur. Bu samarali faoliyatni ta'minlash uchun muhim omil hisoblanadi. Ta'lim tizimida loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi mezonlar e'tiborga olinishi lozim:

- Loyihaning yaxlitligi – uning ta'lim tashkiloti tarkibida umumiy harakat mexanizmi sifatida logistik tuzilish bilan uyg'unligi;
- Moslashuvchanlik – mexanizmning faoliyat sharoitlari o'zgarishiga moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo'lishi;
- Dinamikalik – loyiha ishtirokchilari o'rtasida ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish zaruriyati;
- Iyerarxiya – loyiha ishtirokchilarining manfaatlarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan boshqaruv tuzilmasi;
- Ko'p maqsadlilik – loyiha va ta'lim tashkiloti manfaatlari yo'lida mavjud resurslarni maqsadli va samarali ishlatish;
- Tuzilma – loyihaning xususiyatlari uning elementlari va ta'lim tashkiloti tuzilmasi bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlashi.

Ta'lim loyihalarini samarali boshqarish an'anaviy boshqaruvdan farqli tarzda amalga oshirilishi lozim. Bu esa ta'lim sifatini oshirish, resurslarni maqsadli taqsimlash, manfaatdor tomonlar bilan samarali muloqot olib borish hamda ehtimoliy xatarlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shuningdek, loyihalarni boshqarish usullari va standartlarini takomillashtirish orqali ta'lim tizimini xalqaro miqyosda raqobatbardosh holatga keltirish imkoniyati yaratiladi.